

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Ajiniyoz nomidagi NDPI

rektori **B. P. Otemuratov**



cyam 2022 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHON DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**“Cholg’u ijrochiligi va xonandalik”,
“Musiqqa nazariyasi va solfedjio” fanlari**

**60111300 - “Musiqiy ta’lim”
bakalavriat ta’lim yo’nalishining barcha shakllari uchun
(kunduzgi va sirtqi)**

Nukus – 2022

Dastur Nukus davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2022 yil _27 _maydagi _6-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar: Ajiniyaz nomidagi NDPI "Musiqiy ta'lim" kafedrası mudiri,
Allanov A. J,

Ajiniyaz nomidagi NDPI "Musiqiy ta'lim" kafedrası
professorı D. Allanazarov

Ajiniyaz nomidagi NDPI "Musiqiy ta'lim" kafedrası
Dotsenti A. Nadırova

Ajiniyaz nomidagi NDPI "Musiqiy ta'lim" kafedrası
Assistent o'qıtuvchısı R. Saparov

Taqrizchilar: Nukus iqtisoslashgan madaniyat maktabı, xalq cholg'u
ijrochılıgı bo'limi bosh o'qıtuvchısı dotsent Jumaniyazov I
Ajiniyaz nomidagi NDPI "Musiqiy ta'lim" kafedrası
dotsenti S. Tajetdinova

Dastur Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida ishlab chiqilgan.

I. Kirish

60111300 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqa madaniyati" fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, bakalavr darajasini olish uchun O'zbekiston Respublikasi pedagogik oliy ta'lim muassasalariga kiruvchi abituriyentlar uchun mo'ljallangan.

Ushbu dastur "Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati", "Musiqa nazariyasi va solfedjio" fanlari asosida abituriyentlarning musiqiy ta'lim sohasida nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

II. Ijodiy imtihonlarning maqsad va vazifalari

60111300 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohaga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda musiqa ta'limi sohasi kasbida faoliyat yuritish kompetensiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur ijodiy imtihonlarni o'tkazishning asosiy vazifasi abituriyentlarning boshlang'ich musiqa savodi, biror bir cholg'u asbobida ijro eta olish ko'nimasini, xonandalik mahoratini aniqlash, musiqa asarlari namunalarini bilish, o'zbek va chet el ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, vokal, xor, an'anaviy xonandalik mahoratini, ansambl, orkestr, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, mashhur sozanda va xonandalar ijodiy faoliyatini, musiqiy atama va iboralarni, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va an'anaviylik tendensiyalarini, zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni va baholashni nazarda tutadi.

Bunda "Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati" fanidan cholg'u ijrochiligi bo'yicha biror bir cholg'u asbobida o'zbek yoki chet el musiqa asarlarini ijro eta olish ko'nikmasini egallaganlik darajasi; ijro etayotgan musiqa asarini toza, sof hamda dinamik, temp va ritmik jihatdan aniq va to'g'ri ijro etishi; musiqa cholg'usini chuqur his eta olishi; ritm, garmonik ohanglarni ijro etishda barmoq harakatlarini to'g'ri bajarishi; ijro etayotgan asarning muallifi, cholg'u asbobi turi, nomi, tarixi haqida hamda milliy cholg'ular to'g'risida aniq ma'lumotlarga egaligi. Xonandalik bo'yicha xonandalik janrlari; ijro etayotgan asarning nomi, muallifi, janri xususida batafsil ma'lumotlarga ega ekanligi; ijroda sof intonatsion qoidalarga to'la amal qilishi, tonallikni ushlay olish ko'nikmasiga egaligi; tajribasi, ovoz, nafas va ularni ishlata olish mahorati, bu borada orttirgan tajribasi; vokal, xor, estrada, an'anaviy xonandalik asarlarini ijro eta olish mahorati, yo'llari, maktabi, tajribalari haqida bilimlarga egaligi; bastakor, kompozitorlar va ularning faoliyati, ular ijodida yuzaga kelgan musiqiy asarlarni bilishi;

"Musiqa nazariyasi va solfedjio" fanidan mazkur fanda musiqiy tizim, tovush, nota yozuvi qonun-qoidalari, metr, ritm, temp, lad, tonallik, tonalliklar kvarta-kvinta doirasi, turli xil major va minor gammalar, xalq lادلari, interval,

akkord, alteratsiya, xromatizm, tonalliklar pog'onadoshligi, modulyatsiya va og'ishma, transpozitsiya, kuy, musiqa bezaklari xususida nazariy bilimlar; bir ovozli kuylarni, tovushdan va tonallikda major, minor hamda xalq ladlari tovushqatorlarini, xromatik gamma, turli xil interval va akkordlarni yechilishlari bilan yozma ravishda va fortepianoda tuzib sof intonatsiyada kuylash, musiqa elementlarini tinglab aniqlash ko'nikmalar, talab etiladi.

Shular bilan bir qatorda ijodiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, musiqa san'atining inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, yoshlarni aqliy, axloqiy, jismoniy va ma'naviy kamol topishidagi roli; milliy ong, milliy tafakkur, milliy g'urur, Vatanni sevish uni ardoqlash hislarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega bo'lishlari; musiqa san'ati vositasida milliy g'oyani o'quvchi-yoshlar qalbiga singdirib borish yo'llarini tasavvur qila olishlari; Respublikamizning mustaqillik yillarida O'zbekistonda san'at va musiqiy ta'limni yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

III. Abiturientning bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini egallagan bo'lishi, uni namoyish eta olishi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni hamda atama va tushunchalarni bilishi, musiqa elementlarini kuylash va tinglab aniqlab berishi, notaga qarab kuylab berishi lozim.

IV. Ijodiy imtihon o'tkazish tartibi

Kasbiy ijodiy imtihon uchta fan doirsida o'tkaziladi, har bir fan bo'yicha abituriyent bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qo'yiladi. To'plagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

"Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati" fanlari bo'yicha ijro etilgan asarlar ro'yxati (repertuar), abituriyent tomonidan yozma tarzda imzolangan xolda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

"Musiqa nazariyasi va solfedjio" fani bo'yicha egallagan nazariy bilimlari yozma ish, diktant, tinglab kuylash, tinglab chalib berish, tinglab aniqlash kabi qator topshiriqlar asosida aniqlanadi.

Mazkur yo'nalishda test imtihonlari o'tkazilishi munosabati bilan – test imtihonlariga - 33 ball ajratilgan bo'lib shundan;

Kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlarning umumiy bali – **156** balni tashkil etadi.
Jumladan:

1. "Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati" fanlari uchun – **104 ball**;
2. "Musiqa nazariyasi va solfedjio" fani uchun – **52 ball**.

V. Kasbiy (ijodiy) imtihon mazmuni

V. 1.1. Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati

a) Baholash mezonlari

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini ijro etishi talab etiladi. Shuningdek, qo‘shimcha tarzida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi kuyini chalib, kuylab berishi, O‘zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilishi, mustaqillik yillarida respublikamizda musiqa san‘atini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o‘z fikrlarini bayon etishi talab etiladi.

№	Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ijro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob mazmuni	Ballar taqsimoti
1-asar	Yirik shakldagi asar (Maqom yo‘lidagi cholg‘u asarlari, Sonatina, Sonata, Variatsiya, Konsert va boshqalar)	0 - 15
1a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 2
2-asar	O‘zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg‘u kuylari. Polifoniya (Invensiya, Fuga, Preludiya va fuga, va boshqalar)	0 - 15
2a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 2
3-asar	O‘zbek o‘tmish bastakorlar asarlari, Pesa, etyud	0 - 10
3a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 2
4. Og‘zaki javob (kollokvium)	Musiqiy cholg‘ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg‘u musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 6
Jami		52

Izoh: OTM kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg‘ular bilan ta‘milash majburiyatini olmaydi. Abituriyentlar ijro etadigan musiqa cholg‘usini

o‘zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kabi (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo‘rligidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a‘zolari o‘zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e‘lon qilinadi.

b) Taxminiy asarlar ro‘yhati

Fortepiano:

1. Yirik shakldagi asarlar – N.Zakirov “Sonata”, F.Nazarov “Kontsert”, M.Klementi, L.Betxoven, Y.Gaydn, V.A.Motsart, F.Shubert, M.I.Glinka, A.K.Glazunov va boshqa chet el kompozitorlari sonatina, sonata va kontsertlari.

2. Polifonik asarlar – I.S.Baxning “Frantsuz syuitalari”, ikki va uch ovozli invensiyalari, XTK 1-tom prelyudiya va fugalari, shuningdek G.Gendel, R.Shuman, M.I.Glinka, A.K.Glazunov, D.D.Shostakovich, G.Mushel kabi kompozitorlarning polifonik asarlari.

3. Pesa – F.Shopen, Y.Brams, F.List, E.Grig, P.I.Chaykovskiy, S.Raxmaninov, M.Ashrafiy “So‘zsiz qo‘shiq”, X.Azimov “Noktyurn”, P.Xalikov “Dutor navolari” va boshqa asarlar, shuningdek K.Cherni, M.Klementi, I.Mosheles, F.Shopen va boshqa kompozitorlar etyudlari.

O‘zbek va Qoraqolpoq xalq cholg‘ularida:

1. Yirik shakldagi asarlar – O‘zbekiston, Qoraqolpog‘iston va chet el kompozitorlarining sonatina, sonata, kontsert v.b.

2. O‘zbek xalq kuylari – “Dugox”, “Segox”, “Yolg‘iz”, “Navruzi ajam”, “Rajabiy”, “Kushchinor”, “Tanovar”, “Munajat” va b.

3. Qoraqolpoq xalq kuylari – “Nama basi”, “Qosha das”, “Muxalles”, “Siy perde”, “Qara jorga”, “Aq ishik”, “Nariydirgen”, “Ilme Sultan”, “Ariwxan”, “Nalish”, “Min tumen”, “Eshbay” namasi”, “Aqsingul”, “Jeti asırım”, “Ala qayis”, “Ku‘nxoja”, “Hawjar”. ”Yasha pariy”, “Tarlan”, “Adınnan”, “Bes perde”, “Suw serper”, “Injiltma”, “Popuri”, “Ziyada”, “Qalxali” va b

V. 1.2. Xonandalik mahorati

a) Baholash mezonlari

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini kuylab berishlari talab etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylab berishi, O‘zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakorsozandalarini bilish va mustaqillik yillarida respublikamiz san‘atini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o‘z fikrini bayon etishi talab etiladi.

№	Xonandalik mahorati bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savol-javob	Ballar taqsimoti
1-asar	Maqom, an'anaviy xonandalik, o'zbek, qoraqalpoq va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo'shiqlari	0 - 15
1a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati	0 - 2
2-asar	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf "Musiqqa madaniyati" fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlardan namunalar	0 - 15
2a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati	0 - 2
3-asar	O'zbek, qoraqalpoq va chet el xalq qo'shiqlari	0 - 10
3a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat	0 - 2
4. Og'zaki javob (kollokvium)	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek, qoraqalpoq va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 6
Jami		52

Izoh: Abiturientlar xonandalik fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon vaqtida o'zi ixtiyoriy cholg'u asbobida chalib ijro qilishi mumkin. Abiturientlarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatini baholash shaffofligini ta'minlanish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari o'zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abiturient bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e'lon qilinadi.

Xuddi shuningdek, "Cholg'u ijrochiligi va xonandaligi" fani bo'yicha xonandalik asarlari a'lohida va cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijro etilgan asarlar a'lohida ijro etiladi, va umumiy 104 ball hisobidan baholanadi. Baholar qaydnomada aks ettiriladi.

b) Taxminiy asarlar ro'yxati

1. O‘zbek, qoraqalpoq va chet el kompozitorlari operalaridan ariya, romans, estrada qo‘shiqlari.

2. Umumta’lim maktabining 5-, 6-, 7- sinf musiqa madaniyati fani dasturidan o‘rin olgan qo‘shiqlar.

3. O‘zbek, qoraqalpoq va chet el xalq qo‘shiqlari – “Omon yor”, “Tanovar”, alla, qoraqalpoq xaliq qoshiqlari, Hawjar, Hayiw, Qiz minayim, Dembermes, Lay lay, Altinko‘l, Sawdigim, Go‘zzallar, Daglari, Eshbay, Qoshades, Janim apa, Adinannan, Pal bolsin, to‘y marosim qo‘shiqlari, yalla, lapar va h. to‘y marosim qo‘shiqlari, yalla, lapar va h

V. 2. Musiqa nazariyasi va solfedjio

a) Baholash mezonlari

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalanishi. Tovushlar, interval, akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvi, nota cho‘zimlari va ularga qo‘yiladigan tovushlar cho‘zimini uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar, nota yozuvini qisqartirish belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho‘zimlarning turkumlanishi. Oddiy, Murakkab, Aralash va o‘zgaruvchan metrlar va o‘lchovlar. Oddiy va tarkibli intervallar. Diatonik va Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg‘un va noturg‘un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og‘ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish. Major, minor, xalq lادلari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko‘rsatilgan tonallikda tuzib va kuylab berish. Kalmikov va Fridkin “Birovozli solfedjio” o‘quv qo‘llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval, akkord, lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

№	Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari	ballar taqsimoti
1.	Nazariy materiallarni bilish.	0 - 14
2.	Major, minor, xalq lادلari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko‘rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash	0 - 14
3.	Takt hissalarini qo‘l harakatini ko‘rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash	0 - 14
4.	Tinglab aniqlash	0 - 10

Jami	52
-------------	-----------

VI. Ijodiy imtihonlar natijalarining baholash mezonlari

VI. 1. Cholgʻu ijrochiligi va vokal xonandaligi

Baholash kategoriyasi	Baholash mezonlari	1-asar uchun ball	2-asar uchun ball	3-asar uchun ball	4-javob uchun ball
Cholgʻu ijrochiligi					
1-“ A’lo”	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, texnik jihatdan mukammal va badiiy jihatdan ifodali.	<i>13-15</i>	<i>13-15</i>	<i>8-10</i>	<i>5-6</i>
	Ogʻzaki javobi toʻlaqonli	<i>2</i>	<i>2</i>	<i>2</i>	<i>-</i>
2-“Yaxshi”	Asar ijrosi bir oz kam yorqin boʻlib, badiiy jihatdan toʻgʻri, ammo texnik jihatdan mukammal boʻlib, ayrim noaniqliklarga yoʻl qoʻyilgan.	<i>10-12</i>	<i>10-12</i>	<i>5-7</i>	<i>3-4</i>
	Ogʻzaki javobi toʻliqsiz.	<i>1,5</i>	<i>1,5</i>	<i>1,5</i>	<i>-</i>
3-“Qoniqarli”	Cholgʻuda ijro etish koʻnikmalari sust, nota matni notoʻgʻri yodlangan	<i>7-9</i>	<i>7-9</i>	<i>3-4</i>	<i>1-2</i>
	Ogʻzaki javobi toʻliqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>-</i>
4-“Qoniqarsiz”	Asar ijrosi yoddan emas, yoki cholgʻuda ijro etish koʻnikmalari yetarli darajada rivojlanmagan.	<i>0-6</i>	<i>0-6</i>	<i>0</i>	<i>0</i>
	Ogʻzaki javobi sust yoki yoʻqligi	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>-</i>
Xonandalik mahorati					
1-“ A’lo”	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, intonatsion jihatdan aniq, toza va ifodali.	<i>13-15</i>	<i>13-15</i>	<i>8-10</i>	<i>5-6</i>
	Ogʻzaki javobi toʻlaqonli	<i>2</i>	<i>2</i>	<i>2</i>	<i>-</i>
2-“Yaxshi”	Asarni badiiy ijro etishda yorqinligi bir oz kamroq, tenik ijro jihatidan	<i>10-12</i>	<i>10-12</i>	<i>6-7</i>	<i>3-4</i>
	meyoriga yetmagan, ayrim noaniq intonatsiyalar mavjud				
	Ogʻzaki javobi toʻliqsiz.	<i>1,5</i>	<i>1,5</i>	<i>1,5</i>	<i>-</i>
3-“Qoniqarli”	Kuylash koʻnikmalari sust, ijrosi noaniq (falsh), tonallikda turmaslik, nota matni notoʻgʻri yodlangan	<i>7-9</i>	<i>7-9</i>	<i>4-5</i>	<i>2-3</i>

	Og‘zaki javobi to‘liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>-</i>
4- “Qoniqarsiz”	Asar ijrosi yoddan emas, intonatsiya falsh (musiqiy eshitish qobiliyati yo‘qligi) yoki ijro etib bera olmasligi.	<i>0-5</i>	<i>0-5</i>	<i>0</i>	<i>0</i>
	Og‘zaki javobi sust yoki yo‘qligi.	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>1</i>	<i>-</i>

VI. 2. Musiqa nazariyasi va solfedjio

№	Baholash mezon	1-vazifa	2-vazifa	3-vazifa	4-vazifa
1-“ A’lo”	Vazifaning to‘liq bajarilishi, intonatsiyasi aniq, toza, sof.	<i>12-14</i>	<i>12-14</i>	<i>12-14</i>	<i>8-10</i>
2-“Yaxshi”	Vazifaning ayrim noaniqliklar bilan bajarilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh).	<i>10-12</i>	<i>10-12</i>	<i>10-12</i>	<i>5-7</i>
3- “Qoniqarli”	Materialni sust bilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh), lekin javob berish jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi.	<i>8-10</i>	<i>8-10</i>	<i>8-10</i>	<i>3-4</i>
4- “Qoniqarsiz”	Materialni bilmasligi, intonatsiya aniq emasligi (falsh)	<i>0-7</i>	<i>0-7</i>	<i>0-8</i>	<i>0-2</i>

VII. Ko‘zi ojiz abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihon natijalarini baholash mezon

Yuqorida ta’kidlanganidek 60111300 - “Musiqa ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ijodiy imtihon dasturiga ko‘ra shu yo‘nalishga oid bo‘lgan cholg‘u asbobida asar ijro etish, qo‘shiq kuylash, musiqa nazariyasi va solfedjio fanlaridan abituriyentlarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini aniqlash talablari kiritilgan.

Har bir ko‘zi ojiz abituriyent ijodiy imtihon yakuni bo‘yicha jami 5 baho to‘plash imkoniga ega. To‘planadigan baho predmetlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- a) Cholg‘u ijrochiligi – 5 baho;
- b) Qo‘shiq kuylash – 5 baho;
- s) Musiqa savodxonligi – 5 baho;
- d) Solfedjio – 5 baho.

Umumiy 5 bahoning 2 va undan past bahoga baholangan abituriyentlar o‘qishga tavsiya etilmaydi.

Ijodiy imtihon predmetlari bo‘yicha belgilangan ballar taqsimoti

Baho	Abiturientning bilim darajasi baholanishida quyidagilar e'tiborga olinadi
5 (a'lo)	Musiqiy ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali, to'liq va mukammal, mahorat bilan ijro etilsa, ijodiy fikrlay olishi, qo'shiq kuylash bo'yicha 2 ta turli xarakterdagi va keng diapazondagi (ovoz kengligini va kuchini namoyish etish uchun) qo'shiq ijro etilishi, Cholg'uda ijro tekis, ijro qoidalariga rioya qilib badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri hamda to'liq bajarilganligi, solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yuqori bo'lsa.
4 (yaxshi)	Musiqiy ta'lim bo'yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali ijro etilsa. Cholg'uda ijro tekis, ijro qoidalariga rioya qilishdan chekinsa, badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to'g'ri bajarilsa, Solfedjioni o'qish va kuylash mahorati yetarli bo'lsa.
3 (qoniqarli)	Cholg'uda ijro uchun tanlangan asarlar biroz sodda va bir xil turdagi (xarakterdagi) asarlar bo'lsa, ijro badiiy jihatdan nisbatan sayozroq ijro etilsa, ijroda so'zlar yoddan aytib berilmasa, kuy ohangda va badiiylikda xatoliklarga yo'l qo'yilsa.
2 (qoniqarsiz)	Cholg'uda ijro qilingan asar matnidan chekinish, xatolarga yo'l qo'yilsa, badiiy tomonidan mazmunini yetkazib ijro eta olmasa, asar ijrosida matndan, sur'atdan chiqib ketish va badiiy ijroda xatolikka yo'l qo'yilsa va ifodasiz ijro etilsa.

VII. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2022-2023 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abiturient kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi abiturientlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abiturient tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

Abiturient _____ ning
Cholgʻu ijrochiligi boʻyicha taqdim etgan cholgʻu asarlari boʻyicha toʻplagan ballari
QAYDNOMASI

	Cholgʻu ijrochiligi boʻyicha ijro etiladigan asar janri va ogʻzaki savol-javob mezon	Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)	Ball taqsimoti	Toʻplagan bali
1.	Yirik shakldagi asar (Maqom yoʻlidagi cholgʻu asarlari, Sonatina, Sonata, Variatsiya, Konsert va boshqalar)		0 - 15	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori toʻgʻrisidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qoʻllanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 2	

2.	O'zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg'u kuylari. Polifoniya (Invensiya, Fuga, Preljudiya va fuga, va boshqalar)		0 - 15	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 2	
3.	O'zbek o'tmish bastakorlar asarlari, Pesa, etyud		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 2	
4.	Musiqiy cholg'ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg'u musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda ahamiyati to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 6	
Jami			52	

Ijodiy imtihon komissiyasi:
Abituriyent:

Abituriyent _____ ning Xonandalik mahorati bo'yicha taqdim etgan asarlari yuzasidan to'plagan ballari QAYDNOMASI

	Xonandalik bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savoljavob mezon	Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)	Ball taqsimoti	To'plagan bali
1.	Maqom, an'anaviy xonandalik, o'zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo'shiqlari		0 - 15	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor //bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi)		0 - 2	

	va pedagogik mahorati			
2.	Umumiy o'рта ta'lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf "Musiqqa madaniyati" fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlardan namunalar		0 - 15	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor //bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati		0 - 2	
3.	O'zbek o'tmish bastakorlar ijodi namunalari (T.Jalilov, Y.Rajabiy, S.Kalonov, D.Zokirov va boshqalar),O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat		0 - 2	
4	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 6	
Jami			52	

Ijodiy imtihon komissiyasi:

Abiturient:

Abiturient _____ning Musiqqa nazarisi fanidan baholash mezonlari asosida to'plagan ballari qaydnomasi

№	Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari	Topshirlarga abituriyent tomonidan berilgan javoblar (yoziladi)	Ballar taqsimoti	Abituriyent to'plagan ballar
1.	Nazariy materiallarni bilish		0 - 14	
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash		0 - 14	
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash		0 - 14	
4.	Tinglab aniqlash		0 - 10	
Jami			52	

Ijodiy imtihon komissiyasi:

Abituriyent: